

Avtomobil Transportida Xavfli Yuklarni Tashish Yo'nalishlarining Nazariy Asoslari

Utkirov Shokirxo'ja Shavkat o'g'li, Aliyev Abdusalom Abduraxmonovich,
Nazarova Mashhura Saparbayevna
Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida xavfli yuklarni tashish yo'nalishlarini aniqlash va real ko'cha yo'l tarmog'ida yo'l-transport hodisalari sonini kamaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida etakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnika texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, yuk terminallari faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash texnologik jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Key points: portilovchi, suyuq, xavfli, xossalar, moddalar, mahsulot, yo'l harakati, taminlash, jihozlar.

Tahlil va natijalar; Xavfli yuklarga tashishda ularga xos bo'lgan xossalar va xususiyatlar tufayli odamning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi, atrof-muhitga zarar etkazishi, moddiy boyliklarning shikastlanishi yoki yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday moddalar, materiallar, mahsulotlar, ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatning chiqindilari kiradi.

Xavfli yuklarni tashishga tayyorlash va tashishni tashkil qilishda tashishning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy qoidalarni o'rnatadigan direktiv hujjatlarga tayanish zarur bo'ladi. Xavfli yuklarni xalqaro tashishlarda Evropa xavfli yuklarni avtomobil transporti bilan xalqaro tashish to'g'risidagi Kelishuvi ADR (DOPOG) amal qiladi. DOPOG ning oxirgi tahriri 2011 yildagi tahrir (DOPOG-2011) bo'lib hisoblanadi, u BMT ning xavfli yuklarni tashish bo'yicha tavsiyalarining Tiplashgan Qoidalarini maksimal darajada hisobga oladi.

DOPOG ni qabul qilishdan asosiy maqsad – tashish uchun o'ta xavfli bo'lgan yuklardan tashqari boshqa tashiladigan yuklarning nomenklaturasini cheklamasdan turib tashishlarning xavfsizligini oshirish hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun DOPOG faqatgina tashuvchiga qo'yiladigan talablarni emas, balki yukning egasiga qo'yiladigan talablarni ham, taralar va transport vositalarini ishlab chiqaruvchilarga qo'yiladigan talablarni ham, shuningdek yo'l harakatini boshqaruvchi organlarga qo'yiladigan talablarni ham belgilaydi.

Xavflilik darajasiga ko'ra yuklar MDH davlatlarida 7 guruhga bo'linadi:

- 1 guruh - xavfligi kam (qum, shag'al, tuproq, g'isht va h.k.);
- 2 guruh - tez o't olinuvchi moddalar (benzin, atseton, kinoplenka va h.k.);
- 3 guruh - issiq va chang chiqaruvchi (sement, asfal't, ohak va h.k.);
- 4 guruh - kuydiruvchi (kislota va ishqorlar);

5 guruh - ballonda tashiluvchi siqilgan va suyultirilgan gazlar;

6 guruh - nogabarit (o'lchamiga ko'ra xavfli yuklar);

7 guruh - portlovchi, zaharlovchi va radiaktiv moddalar;

Xalqaro yuk tashish qoidalariga binoan Evropa davlatlarida xavflilik darajasiga ko'ra Birlashgan Millatlar tashkiloti ekspertlar qo'mitasi tavsiyasiga ko'ra yuklarni tashish uchun ADR kelishuvi nomi bilan tashiluvchi buyum va tovarlarni tashish uchun xalqaro konvensiya qabul qilingan bo'lib, unda yuklar xavflilik darajasiga binoan quyidagi 9 sinfga bo'linadi:

1-sinf - portlovchi modda va tovarlar;

2-sinf - gazlar: siqilgan, suyultirilgan yoki yuqori bosim bilan suyultirilgan;

3-sinf - suyuq yonilg'ilar;

4.1-sinf - yonuvchi qattiq jismlar;

4.2-sinf - o'zi yonib ketish xususiyatli moddalar;

4.3-sinf - suv tegishi natijasida gaz chiqaruvchi moddalar;

5.1-sinf - oksidlovchi moddalar;

5.2-sinf - organik peroksid (o'ta oksid)lar;

6.1-sinf - zaharlovchi moddalar;

6.2-sinf - yuqimli (infeksion) moddalar;

7-sinf - radiaktiv moddalar;

8-sinf - korroziyanuvchi moddalar;

9-sinf - har xil xavfli modda va tovarlar (yuqoridagi sinflarga kiritilmagan).

1 sinf – Portlovchi moddalar. Portlovchi moddalarga ma'lum bir haroratda, bosimda va tezlikda gazlarni ajratish bilan kimyoviy reaksiyalarni sodir qilishga qodir bo'lgan va buning natijasida qurshab turuvchi predmetlarga shikast etkazishi mumkin bo'lgan qattiq yoki suyuq moddalar (yoki moddalarning aralashmalari); pirotexnik moddalar: detonatsiyasiz kechadigan, o'z-o'zini ushlab turadigan ekzotermik reaksiyalar natijasida issiqlik, yorug'lik, tovush, gaz, tutun yoki ularning kombinatsiyalari ko'rinishidagi hodisani yaratish uchun mo'ljallangan moddalar yoki ularning aralashmalari; portlovchi mahsulotlar: bitta yoki bir nechta portlovchi yoki pirotexnik moddalarni o'z ichiga oladigan mahsulotlar kiradi.

Portlovchi modda va buyumlardan namunalar



o'q-dorilar



patronlar



pirotexnika



porox



portlatgichlar

Siqilgan gaz – tashish uchun bosim ostida yuklangandan keyin $-50\text{ }^{\circ}\text{S}$ haroratda to'liq gazsimon bo'lib hisoblanadigan gaz; bu toifaga – $50\text{ }^{\circ}\text{S}$ yoki undan past kritik haroratga ega bo'lgan barcha gazlar kiradi.

Siqilgan gaz – tashish uchun bosim ostida yuklangandan keyin $-50\text{ }^{\circ}\text{S}$ dan yuqori haroratlarda qisman suyuq bo'lib hisoblanadigan gaz. Bunda: yuqori bosimli siqilgan gaz $-50\text{ }^{\circ}\text{S}$ dan yuqori va $+65\text{ }^{\circ}\text{S}$ dan yuqori bo'lmagan kritik haroratga ega bo'lgan gazdir; past bosimli siqilgan gaz $+65\text{ }^{\circ}\text{S}$ dan yuqori kritik haroratga ega bo'lgan gazdir.

Sovutilgan siqilgan gaz – tashish uchun bosim ostida yuklangandan keyin o‘zining past harorati tufayli qisman suyuq bo‘lib hisoblanadigan gaz.

Eritilgan gaz – tashish uchun bosim ostida yuklangandan keyin suyuq erituvchida eritilgan gaz.

Ichiga gaz to‘ldirilgan aerozol changlatgichlar va kichik sig‘imlar (gaz ballonchalari).

Hulosa va takliflar; Xafli yuklarni avtomobil transportida xalqaro tashishni tashkil etishda xafsiz tashish tizimini oshirishda haydovchilar malakasi ham muhim omil bo‘lib hizmat qiladi. Xafli yuklarni tashishda ishlovchi haydovchilarni tayyorlashda quyidagi parametrlarga etibor beriladi.

- ✓ yuklar va ularning xavflilik darajasini bilish
- ✓ profilaktika va xavfsizlik choralari amalga oshirish tartibini bilish
- ✓ baxtsiz hodisa yuz berganda nima qilish kerakligi
- ✓ belgilash, yorliqlash, plakatlashdan foydalanishni bilish
- ✓ xafli yuklarni tashish paytida haydovchi majburiyatlari nimalardan iborat ekanligini bilishi kerak
- ✓ yuklarni aralash yuklashda xaflilik darajasini xisobga ilishni bilish
- ✓ Yuklash, tushirish va tashish vaqtidagi ehtiyot choralari ko‘rish



2 -rasm. Avtomobil transportida xafli yuklarni xalqaro tashish jarayonida tashish qoidalar buzilmaganligini tekshiruv maskani.

Xafli yuklarni xalqaro tashishda avtomobil transport vositasi haydovchilari ushbu yukning xafsiz yetib borishini taminlovchi asosiy vositachi xisoblanadi. Quyidagilarni xafli yuk tashish bilan shug‘ullanuvchi haydovchilar bilishi talab etiladi:

- ✓ Xafli yuklarni tashish jarayoning tartibga soluvchi umumiy talablarni;
- ✓ Xafli yuklar sinflanishini va ularning xaflilik darajasini;
- ✓ Xaf tug‘ulgan davrda xafsizlik choralari ko‘rish bo‘yicha axborotga (ko‘nikmaga) ega bo‘lish;
- ✓ Xar xil turdagi xaf darajalarida xafsizlikni taminlash joralarini aniqlay olish;
- ✓ Avtoxalokat yuzaga kelgan davrda birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsata olish va atrof muhitni xafli yukdan ximoyalash choralari ko‘rish;
- ✓ Yuklarning markalanishi, xaflilik belgilari, xabar beruvchi tablo va sariq rangli tablitsaning o‘rnatilish talablarini;
- ✓ Xafli yuklarni tashishda haydovchi qilishi va qilmasligi shart bo‘lgan vazifalarni bilish;
- ✓ Fuqorolik vazifasini bajarishi bo‘yicha umumiy javobgarlik;
- ✓ Xafli yuklarni multimodal tashishni tashkil etish talablarini bilishi;

Transport yo'laklarini xafli yuk tashish jarayonida qo'shimcha infratuzulma obektlaridan foydalangan holda xafsizlik choralarini oshirish mumkin.

Transport yo'laklari kamdan-kam hollarda noldan yaratiladi. Aksariyat savdo majmualari mavjud kommunikatsiyalar asosida shakllantirilib, ular yagona standartlar (ruxsat etilgan yuklar, o'lchamlar, o'tkazuvchanlik va boshqalar) asosida modernizatsiya qilinadi, bu esa transport vositalarining to'siqsiz harakatlanishini ta'minlaydi. Savdo majmuasi tugunlaridagi terminallarning parametrlari va sig'imi yuk birliklarini to'siqsiz tashish va oraliq saqlashni, tashiladigan tovarlar bilan logistika operatsiyalarini bajarish, transport vositalariga xizmat ko'rsatish va hokazolarni ta'minlaydigan tarzda tanlangan.

Adabiyotlar.

1. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/10161>
2. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88. <https://interonconf.org/index.php/sues/article/download/1948/1753>
3. S Utkirov (2023). YO'L HARAКATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA YANGICHA MEХANIZMLARNI ISHLAB CHIқISH. Академические исследования в современной науке 2 (4) 71-73. <http://econferences.ru/index.php/arims/article/view/4075>
4. D Abdurazakova, S Utkirov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Science and innovation in the education system 2 (4), 8-10. <http://econferences.ru/index.php/sies/article/download/5003/2858>
5. TS Qodirovich, US Shavkat o'g'li (2023). PIYODALAR KIYIMINING RANGI YO'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLIШDA QANDAY AHAMIYATGA EGA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 987-992.
6. TS Qodirovich, US Shavkat o'g'li (2023). O 'ZBEKISTON MILLIY AVTOSANOATDA ISHLAB CHIқARILGAN YENGIL AVTOTRANSPORT VOSITALARINING MARKIROVKA BELGILARINI ANIQLASH USULLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 980-986.
7. SX Shermatov, SSO Utkirov, EXOGL Abdusamatov (2023). TRANSPOR SOHASIDA YUZAGA KELGAN MUAMOLARNING EKOLOGIYAGA TASIRI (avtomobil transporti). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 (3) 702-709.
8. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.